



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 29-iyul, shanba,
90 (23.811)-son

**KUN
HIKMATI**

Oltin har qancha
qimmatbaho
bo'lmasin, u inson
hayoti farovonligiga
kafolat bo'la
olmaydi

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

Respublika ishchi guruhi:

MUAMMOLAR HAL ETILMOQDA

Davlatimiz rahbari topshirig'iga asosan tuzilgan Respublika ishchi guruhi o'z faoliyatini Samarqand viloyatida davom ettirmoqda. Guruh tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni o'rganish va namunaviy ko'cha, obod xonadon tizimini joylarda tashkil etish hamda aholi bilan muloqot o'tkazish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Prezident maslahatchisi o'rinbosari boshchiligidagi Respublika ishchi guruhi tarkibiga Prezident Adm-nistratsiyasi mas'ul xodimlari, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, Xalq qabulxonalarining mas'ul xodimlari, 15 ta vazirlik va idoralar hamda viloyat, tuman va shahar sektorlari, sohaviy tashkilotlar rahbarlari jalb etildi.

Ishchi guruhlar tomonidan viloyatning 16 ta tuman va shaharlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli og'ir mahallalarda xonadonbay yurish orqali aholi kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan qator muammolar aniqlandi.

Xususan, Kattaqo'rg'on shahri, Jomboy, Bulung'ur va Narpay tumanlarida aholi uy-joylarining ichimlik suvi, elektr ta'minoti va ichki yo'llar ta'miri, Samarqand shahri, Payariq, Oqdaryo, Samarqand tumanlarida esa oilaviy shifokorlik punktlari yoki maktabgacha ta'lim maskanlari singari qator ijtimoiy soha obyektlarining mukammal ta'mirga muhtojligi kabi masalalar qayd etildi.

Ushbu muammolarni hal etish maqsadida ishchi guruh tomonidan zarur ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, yo'l, kommunikatsiya tarmoqlari, infratuzilma holatini yaxshilash uchun 38,1 kilometr ichki yo'llarga asfalt qoplamasi yotqizish va shag'al-lashtirish ishlari bajarildi. Misol uchun, Kattaqo'rg'on shahri Nurobod mahallasida 3,1 kilometr, Kunjupay mahallasida 0,9 kilometr, Bulung'ur tumani Samarqand mahallasida 1,8 kilometr, Payariq tumani Xalqobod mahallasida 1,3 kilometr, Narpay tumani O'zbekiston mahallasida 1,0 kilometr, Samarqand shahri Mulyon mahallasida 1,2 kilometr asfalt yotqizish ishlari bajarildi.

Elektr ta'minotini yaxshilash maqsadida 3 dona transformator, 104 dona temir-beton tayanch ustunlari

o'rnatish hamda 4,05 kilometr yangi elektr tarmoq tortish ishlari amalga oshirildi. Jumladan, Bulung'ur tumanida 47 dona, Samarqand tumanida 23 dona tayanch ustun, Payariq tumani va Kattaqo'rg'on shahrida 1 donadan transformator o'rnatildi.

Ichimlik suvi yaxshilash borasida hududda 5900 metr ichimlik suvi tarmog'i tortildi. Jumladan, Narpay tumani Guliston mahallasiga 1000 metr, Kattaqo'rg'on tumani Namozpolvon va Kumushqirg'oq mahallasiga 950 metr, Payariq tumani Chelak shahrida 800 metr ichimlik suv tarmoqlari tortildi. Shuningdek, Samarqand va Paxtachi tumanlarida qator suv inshootlaridagi suv nasoslari yangilab berildi.

Aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari ham Respublika ishchi guruhi e'tibor markazida bo'ldi. Ushbu maqsadda tijorat banklari tomonidan 1971 nafar fuqaroga va tadbirkorlik subyektlariga 83,9 milliard so'm miqdorida kreditlar ajratilishi ta'minlandi. Shundan, oilaviy tadbirkorlik yo'nalishida 397 fuqaroga 7,8 milliard so'm, savdo faoliyati yo'nalishida 6 subyektgacha 535 million so'm, xizmat ko'rsatish sohasiga 11 ta subyektgacha 13 milliard so'm, qishloq xo'jaligi sohasi bo'yicha 5,8 milliard so'm mablag' ajratildi.

Shuningdek, 20 nafar fuqaroga tadbirkorlik faoliyatini boshlash maqsadida Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi mablag'lari hisobidan subsidiya asosida 87 million so'mlik tikuv mashinalari, 3 nafar fuqaroga qandolatchilik foyiatini boshlash uchun 18,7 million so'mlik, pishiriq pechi va qishloq xo'jaligi foyiatini bilan shug'ullanish uchun 16 nafar fuqaroga 97,9 million so'mlik motokultivator berildi.

Bu boradagi ishlar davom etmoqda.



O'zining tarixiy obidalarini, aziz qadamjolari bilan dunyo e'tirofi va e'tiboriga sazovor bo'lib kelayotgan Samarqand yana bir betakror maskanga ega bo'ldi.

Mahalliy aholi "Chashma" deb atovchi qadimiy buloq joylashgan hududda tashkil qilingan yangi dam olish maskani - "Crystal Garden Samarkand"ning umumiy maydoni 10 ming kvadrat metr. Muhimi, bu hudud yurtimiz tashrif qog'oziga aylangan Registon maydoni yaqinida joylashgan.

Shaharning qadimiy hududida tashkil qilingan maskan havo harorati ko'tarilgan bugungi kunlarda mahalliy va xorijlik sayyohlarni o'ziga jalb etishi tabiiy.

Ko'rib turganingizdek, butun maydon atrofi favvoralar bilan o'ralgan, - deydi tadbirkor Haydar Bagirov. - Maqsadimiz aholi, sayyohlarning qadimiy shaharda tabiat, zamonaviy arxitektura va texnologiya uyg'un maskanda maroqli hordiq chaqirishiga sharoit yaratishdan iborat. Maskan mavsumiy faoliyatga ixtisoslashgan bo'lib, bu yerda kafe, restoran tashkil qilinib, ochiq havoda xizmat ko'rsatiladi. Shuningdek, bog'da konsert dasturlarini o'tkazish uchun ham sahna tashkil qilingan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, havo harorati baland bo'lganda ham bu yerda mo'tadil havo saqlanib turadi. Ayni paytgacha amalga oshirilgan qurilish, bunyodkorlik ishlarining qiymati 3 million AQSH dollaridan oshdi. Loyihamiz hali to'liq yakunlangani yo'q. Loyiha bo'yicha qadimiy buloq atrofini ham obodonlashtirib, hududni obod maskanga aylantirishimiz zarur.



**SAMARQANDDAGI
FAVVORA
JAHON REKORDINI
O'RNATDI**



Tadbirkorning qayd etishicha, ushbu loyiha Jahon rekordlari ittifoqining "Bir muassasadagi eng uzun kombinatsiyalangan favvoralar uzunligi" yo'nalishida jahon rekordlari yilnomasidan joy oldi. Bog'da 225 metrlik betakror dizayndagi favvoralar mavjud

bo'lib, o'ziga xos landschaft dizayn tashrif buyuruvchilarga unutilmas kayfiyat ulashadi.

Ushbu loyiha 2024-yilda to'liq yakuni-ga yetkazilib, keyingi yil yozgi mavsumdan ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

A. ISROILOV.

**HOKIM QARORI, KADASTR,
DAVLAT RO'YXATI BOR,**

**AMMO UY
NOQONUNIY**

"O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan o'zaro huquq va majburiyatlar bilan bog'liqdir. Insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas.

Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi. Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi.

Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralarini mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerak.

Inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi".

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan Konstitutsiyasining 20-moddasidan.

(Davomi 2-sahifada) >>>

30-iyul – Xalqlar do'stligi kuni

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi qaroriga muvofiq, 30-iyul butun dunyoda Xalqlar do'stligi kuni sifatida nishonlanadi. Mamlakatimizda ham ushbu sana munosabati bilan tadbirlar, xalqlar do'stligi festivali o'tkazilishi an'ana-ga aylandi.



**Bayramlar
birdamligimizni
mustahkamlaydi**

Yurtimizda 140 ga yaqin milliy madaniy markazlar faoliyat yuritrsa, 100 dan ortiq millat va elat vakillari hamjihatlikda yashab kelmoqda. Bu albatta, o'zbek xalqining bag'rikengligidan darak beruvchi olijanob insoniy fazilatlaridir.

Bugun viloyatimizdagi 11 ta milliy madaniy markazlar millatlararo totuvlik, bag'rikenglik g'oyalarini targ'ib qilish borasida samarali faoliyat olib bormoqda. Xususan, turk, ozarbayjon, tatar-boshqird, koreys, nemis, polyak, tojik va rus milliy madaniy markazlari barcha sharoitlarga ega bo'lgan "Do'stlik uyi"da faoliyat ko'rsatmoqda.

Sana munosabati bilan 27-iyuldan 31-iyulgacha mamlakatimiz bo'ylab "Do'stlik festivali" o'tkazilyapti. U rang-barang, qiziqarli dasturlar, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'zida jamlagan. Shu kunlari viloyatimizning barcha

hududlaridagi nufuzli tomosha maydonlari, so'lim xiyobonlar va bog'larda turli bayram tadbirlari uyushtiriladi.

Madaniyat va san'at festivallari xalqlar do'stligi mustahkamlanishiga xizmat qiladi, - deydi tatar-boshqird milliy madaniyat markazi rahbari Ahmed Subhonqulov. - Bu yurtimizda barcha millat vakillari-ga birdek sharoit yaratilganidan, yagona oiladek, bir yoqadan bosh chiqarib, hamjihat yashayotganimizdan darak beradi. Bayramlar nafaqat kayfiyatimizni tog'dek ko'taradi, balki birdamligimizni ham mustahkamlaydi.

Mazkur festivaldan ko'zlangan asosiy maqsad millatlararo totuvlikni mustahkamlash, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elat vakillarining madaniyati, tili, milliy an'ana va urf-odatlarini asrab-avaylashga qaratilgan.

Ulfat OCHILOV.

Test sinovlari 1-avgustdan boshlanadi

2023-2024-o'quv yili uchun oliy ta'lim muassasalariga kirish test sinovlari 2023-yil 1-avgustdan boshlanadi.

Test sinovlari kuniga ikki smenada o'tkazilib:

1-smenada 08:00 dan 11:00 ga qadar; 2-smenada 15:00 dan 18:00 ga qadar davom etadi.

Bilim va malakalarni baholash agentligi viloyat bo'limidan ma'lum qilishicha, test sinovlari Samarqand davlat universiteti akademik litseyi sport zali, Samarqand sport o'yin turlari va yengil atletikaga ixtisoslashtirilgan sport maktabi 1-binosi, Samarqand sport

o'yin turlari va yengil atletikaga ixtisoslashtirilgan sport maktabi 2-binosi, Samarqand davlat universiteti jismoniy madaniyat fakulteti sport zali, Samarqand sport o'yin turlari va yengil atletikaga ixtisoslashtirilgan sport maktabi, Samarqand sport o'yin turlari va yengil atletikaga ixtisoslashtirilgan sport maktabi 4-binosi, Samarqand olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi binosida bo'lib o'tadi.

Bu binolar mahalliy hokimlik va mas'ul tashkilotlar tomonidan 4350 ta bir o'rinni stol-stul, 60 ta sovitish moslamasi, 13 ta shaxsni aniqlovchi identifikatsiya qurilmasi, 166 ta videokamera moslamasi bilan jihozlangan.

27-iyuldan abituriyentlarga ruxsatnoma-

larni berish boshlandi. Abituriyentlar test sinovlarida ishtirok etish uchun "Abituriyent ruxsatnomasi"ni my.uzbmb.uz saytiga shaxsiy identifikatsiya raqami hamda pasport seriyasi va raqamini kiritgan holda olishlari mumkin.

Abituriyentlar test sinoviga pasport (ID-karta) va abituriyent ruxsatnomasi bilan belgilangan vaqtdan kechikmagan holda kelishlari lozim.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ma'lum qilishicha, test sinovlari hududlardagi abituriyentlar soni va test sinovlari o'tkaziladigan binolar sig'imidan kelib chiqqan holda 11 kundan 13 kungacha davom etadi va 13-avgust kuni to'liq yakunlanadi.

HOKIM QARORI, KADASTR, DAVLAT RO'YXATI BOR, AMMO UY NOQONUNIY



(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Demakki, endilikda fuqaro va davlat o'rtasida yuzaga keladigan tushunmovchiliklar, mulkiy munosabatdagi noaniqliklar fuqaro foydasiga hal etiladi. Inson qadrini oshirishga qaratilgan mazkur muddadda davlat o'z fuqarosining foydasi uchun yon bosyapti. Bu fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini oshiradi, mahkamalarda uzoq muddatga cho'ziladigan nizoli masalalarning real yechimiga xizmat qiladi. Bir so'z bilan aytganda, qonun ustuvorligi ta'minlanadi. Ammo Ishtixon tumani Barlos mahallasida yashovchi Malika Navro'zova amalda bunday bo'lmayotgani, yashab turgan uy-joyi sud qarori bilan olib qo'yilayotgani to'g'risida tahririyatimizga shikoyat arizasi bilan murojaat qildi. Unda jumladan, shunday deyiladi:

"Oilamiz bilan mehnat qilib, bog' qilgan va yashab turgan uy-joyimiz hokimning qarori asosida ajratilgan, kadastr yig'majildi tayyorlangan, davlat xizmatlari markazidan ro'yxatdan o'tgan, shu asosda yillar davomida soliqni to'lab kelayotgan bo'lsak-da, sud qarori bilan uy-joyimiz noqonuniy, deb topildi, - deydi M.Navro'zova. - Biz ochiq yer maydonida artezian qazdirib, uzumchilik bilan shug'ullanayotgan edik. O'tgan yili uzumlarimiz hosil bera boshlagandi. Endi mehnatimizning rohatini ko'ramiz deganimizda, uy-joyimiz noqonuniy, deb topilyapti".

Murojaatni o'rganish uchun Ishtixon tumanidagi soha mas'ullari, IIB xodimlari bilan birgalikda Barlos mahallasida bo'ldik. Ma'lum bo'lishicha, Ishtixon tumani "Sohibkor" MFY, Bolqi qishlog'ida joylashgan uy-joyda yashovchi fuqaro Navro'zov Ilhom Abdug'aniyevichning 1,14 gektar yer uchastkasini 0,15 gektar qismini meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi berilsin, deyilgan. Yer uchastkasida joylashgan jami 98,80 kvadrat metrdagi binolarga nisbatan mulkiy huquqlarini e'tirof etish belgilangan. Shu asosda tuman davlat soliq inspeksiyasiga 1,14 gektar yer maydoni va mol-mulk soliqlari qonunda belgilangan tartibda undirish vazifasi yuklatilgan. Qarorga asosan, "Sohibkor" MFY raisiga

xo'jalik daftariga tegishli o'zgartirishlar kiritish, tuman arxitektura va qurilish bo'limiga bosh reja talablariga asosan hovli-joydagi qurilishlarni nazorat qilish yuklatilgan. Viloyat yer tuzish va ko'chmas mulk kadastr davlat korxonasi Ishtixon tumani filialiga esa yer uchastkasi hamda binolarni davlat ro'yxatidan o'tkazish vazifalari belgilangan. Tuman kadastr idorasi xodimlari topshiriqqa asosan uy-joyga kadastr yig'ma jildi tayyorlab, yer uchastkasi uchun alohida kadastr raqami bergan. Tuman hokimining qarori, kadastr yig'ma jildi va fuqaroning arizasi asosida mazkur hujjat 2020-yil 13-fevralda tuman davlat xizmatlari markazida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. Amaldagi tartibga ko'ra, mazkur hujjatlar fuqaroga uy-joyiga qonuniy egalik qilish huquqini beradi. Xo'sh, unda nega oradan shuncha vaqt o'tgandan so'ng bu muammo o'rtaga chiqyapti?

- 2014-yilda qaynotam 15 bosh soviqqa shu joyni Qayum Hoji bobodan sotib olgan ekan, ammo buni hozir hech kim isbotlay olmaydi, - deydi M.Navro'zova. - Shundan so'ng kuchimiz yetganicha kichikroq bo'lsa ham uy qurdik, tok ekib parvarishladik, atrofimizga ko'chatlar ekdik. Uy-joyimiz tumaning lalmikor hududida joylashganligi bois aholi asosan tok ekib, uzum yetishtiradi. Shu bois hammaga kattaroq maydon berilgan. Turmush o'rtog'im qishloqda mardikorchiilik qiladi, uning topgan puli bilan ham ro'zg'or tebratdik, ham tok parvarishini qildik. Bir necha yil oldin qaynotam olamdan o'tdi, uzumlarimiz o'tgan yildan hosilga kirdi. Endi esa fermer kelib, "Bu joy fermer xo'jaligi tasarrufida, uyni buzdiraman", deyapti. Uy qurib, tok hosilga kirguncha necha yil o'tdi, bir kunda uy qurilib, ko'chatlar ko'karib qolmadi-ku, fermer qurilishlarni ham, ko'chat ekib parvarishlayotganimizni ham ko'rib, bilib turardi. Endi uzum hosilga kirgach, uyni noqonuniy, deb sudga berdi.

Murojaatni o'rganish uchun borganimizda Ishtixon tumani markazida "Bolqi" fermer xo'jaligining sobiq rahbari, hozirda esa ish yurituvchisi bo'lgan Qayum Tirkashevni uchratdik. Undan murojaat bo'yicha ma'lumot olganimizda "Yer davlatniki, qonun nima desa, shu bo'ladi. Men qushning ham uyni buzishni istamayman, ular-ku hali odam, o'sha uyda yashayversin", degandi. Bu gaplardan so'ng murojaatning yaxshi tomonga o'zgarishidan umid qilib, tegishli mas'ullar hamrohligida aytilgan manzilga yo'l oldik. Ammo u yerda masala

Vazirlar Mahkamasi qaroriga ko'ra

Jismoniy va yuridik shaxslar o'zlariga tegishli yer uchastkalarini (qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini) masofadan turib xususiy-lashtirishlari mumkin.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiy-lashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi qarori bilan jismoniy va yuridik shaxslar o'zlariga tegishli yer uchastkalarini xususiy-lashtirishi mumkin bo'ldi.

Endi yer uchastkasini xususiy-lashtirish mumkin

Fuqarolarimiz yakka tartibdagi uy-joy, yuridik shaxslar esa noturar bino-inshootlarga ega. Endi ular o'zlariga tegishli ko'chmas mulk, yer uchastkalarini (ko'p qavatli uylar bundan mustasno) kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish orqali xususiy-lashtirishi mumkin (agar bino kadastrdan o'tmagan bo'lsa, yer xususiy-lashtirilmaydi).

Shu kunga qadar fuqarolarga tegishli uy-joylar joylashgan yer uchastkalari, meros qilib qoldirilgan umrbod egalik qilish huquqidagi yerlar, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan noturarjoy obyektlarining yer uchastkalariga doimiy foydalanish huquqi beriladi. Ya'ni, bino o'zingizga tegishli bo'lsa ham, uning yeri davlatniki edi.

Endi mana shu yer uchastkalarini xususiy-lashtirish uchun jismoniy va yuridik shaxslar my.gov.uz orqali onlayn murojaat qilishlari mumkin. Kelib tushgan ariza Kadastr agentligi va qurilish bo'limlari uchun uchastkasining ariza bergan fuqaro nomiga rasmiylashtirilganmi yoki yo'qmi, ya'ni

ro'yxatdan o'tkazilganini tekshiradi. Bunda o'sha yer uchastkasi o'zgaragan, bugungi kunda ham reestrda mavjudligi, ta'qiq va cheklovlar yo'qligi, xullas, xususiy-lashtirishga monelik qilmaydigan tomonlari tekshirib chiqiladi.

Qurilish bo'limlari esa yer uchastkasi hududining shaharsozlik me'yorlariga mos kelishini o'rganadi. Barcha tekshiruvlardan o'tgach, fuqaroga xususiy-lashtirish haqida xabarnoma yuboriladi va talabgor to'lovni amalga oshiradi.

YERNI XUSUSIYLASHTIRISH UCHUN QANCHA MABLAG' TO'LANADI?

Arizani ko'rib chiqish uchun 29700 so'm miqdorida yig'im undiriladi.

Shu bilan birga, yer uchastkasini xususiy-lashtirish uchun differensial to'lov undiriladi.

BU QANDAY HISOBLANADI?
Barchamiz yer uchastkasiga yer solig'i to'laymiz. Mulkdorlar

uchun xususiy-lashtirish to'lovi yer uchastkasiga hisoblangan soliq miqdorining 20 barobari deb belgilangan.

Masalan, agar fuqaro bitta hovliga yiliga 100 ming so'm soliq to'lasa (bunda mol-mulk solig'i qo'shib hisoblanmaydi, aynan yer uchastkasiga to'lanadigan soliqqa nisbatan hisoblanadi), xususiy-lashtirish uchun 2 million so'm to'lov amalga oshiriladi. Shundan so'ng o'sha yer uchastkasiga bo'lgan davlat orderi beriladi. Ushbu order asosida kadastr organlari yer uchastkasiga nisbatan mulk huquqini davlat ro'yxatidan o'tkazishadi.

BU MUHIM!
Har bir jismoniy va yuridik shaxs o'ziga tegishli bo'lgan yer uchastkasini faqat o'ziga sotib oladi. Bu yer auksionga qo'yilmaydi va boshqa odam sotib olishi yoki boshqa odamga o'tib ketishi mumkin emas.

Z.ISMATOV, Payariq tumani adliya bo'limi Davlat xizmatlari markazi xodimi.

tamoman teskarisiga aylanib ketdi.

Ilhom Navro'zov mardikorchiilik va ustachilik ortidan topgan puliga imkoniyatidan kelib chiqib, 0,15 sotix maydonga ikki xonali uy qurib, atrofini obodonlashtirgani, mevali manzarali ko'chatlar ekkani, toklar parvarishlanib, hosilga kirganda sud tomonidan uy-joyi noqonuniy deb topilganini bayon qiladi. Agar tok ilgari bir gektar maydon qonundan fermerning tasarrufida bo'lsa, mayli, o'lsin, lekin biz bu maydon uchun ham belgilangan soliqlarni o'z vaqtida to'lab boryapmiz, deb soliq to'lovlarini ko'rsatdi. Faqat 0,15 sotix uy-joyim o'zimd qolsa bo'ldi. Bu gaplardan so'ng Q.Tirkashev uyni o'zi qurganini, shu paytgacha indamagan bo'lsa ham endi uyni buzdirish niyatida ekanligini aytdi. Kadastr hujjatlari va soliq to'lovlarida bu yerlar qonunan I.Navro'zovga tegishli ekanligi ko'rsatilgan. Biroq fermerning hujjatlarini ko'rishning imkoni bo'lmadi.

- Nizoli uy-joyning noqonuniyligi yuzasidan sudga da'vo arizasi kiritganimizdan so'ng sudyaning o'zi kelib, maydonni o'rgandi, - deydi Q.Tirkashev. - Bu joy uchun alohida soliq to'lanmaydi, fermer xo'jaligining yeri sifatida men umumiy soliq to'layapman.

Bundan ko'rinadiki, bitta maydon uchun ham fuqaro, ham fermer soliq to'layaptimi? Unday bo'lsa, nega fermer shuncha yildan buyon fuqaro, egallab, tok ekib, hosilga kirguncha da'vo qilmagan? Biroq uy-joy biz o'ylaganimizdek, dalaning o'rtasida emas, aholi uy-joylarining qatorida joylashgan. Murojaatchilarning aytishicha, shu atrofdagi aholi ham uy-joy qurish uchun yerni fermerdan olgan va uy-joylari uchun ham bir kunda, bitta mutaxassis tomonidan kadastr hujjati tayyorlangan. Ammo fermer ularning ham uy-joylarini sudga berishdan qo'rqib, haqiqatni aytolmaydi. Anglaganingizdek, ushbu uy-joy Prezidentimizning 2018-yil 20-apreldagi "Fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar hamda o'zboshimchalik bilan qurilgan turarjoylarga nisbatan mulk huquqini e'tirof etish bo'yicha bir martalik umumdavlat aksiyasini o'tkazish to'g'risida"gi farmoni asosida mulk huquqi berilgan.

- Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar hamda o'zboshimchalik bilan qurilgan turarjoylarga nisbatan mulk huquqini e'tirof etish bo'yicha bir martalik umumdavlat aksiyasini o'tkazish to'g'risida" 2018-yil 20-apreldagi PF-5421-son farmoni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari haqida"gi qarori doirasida fuqarolar davlat xizmatlari markaziga murojaat qilgan, - deydi Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali boshlig'i Husniddin Ostonov. - Qarorda bizning idoramizdan tashqari, yer rusurslari, tuman arxitektori, soliq, "SES" ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish idorasi, yong'in xavfsizligi kabi 7 ta xulosa beradigan komissiya tashkil etilgandi. Fuqaro ariza bergandan so'ng Kadastr palatasi idorasining vazifasi joyni o'rganib, chizmalarni tizimga joylashtirish, undan keyin mas'ul bo'lgan 7 ta tashkilot joyiga chiqqan holda o'rganib, besh ish kunida o'z xulosasini beradi. Agar o'sha tashkilotlardan bitta bo'lsa ham salbiy xulosa bersa, qaror chiqmaydi. Demak, mas'ul tashkilotlar bu uy-joy uchun ijobiy xulosa bergan va mulk huquqi bo'yicha qaror chaqarilgan. Bu yerda yer rusurslari idorasi uy-joy joylashgan maydon aholi punkti, deb xulosa berilgan. Shunga asosan rad etilmagan va tuman hokimining qarori chiqarilgan. Davlat kadastrlari palatasi tuman hokimi qarorining o'ziga tegishli qismini ijrosini bajarishi lozim. Qarorga asosan, kadastr yig'majildi shakllantirilib, davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. Qaror bilan tasdiqlangan nizomda obyekt joylashgan yer boshqa shaxslarning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga xid kelmaydigan joyda joylashgan bo'lsa yoki qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar toifasiga kirmaydigan yerlar bo'lsagina rad etilmasligi lozim. Boshqa shaxslar, fermer xo'jaligiga tegishli maydonlar bo'lsa, rad etilishi kerak. O'rganish xulosalariga ko'ra bu uy-joy rad etil-

magan va mulk huquqi e'tirof etilgan.

Biroq "Bolqi" fermer xo'jaligi boshlig'i H.Tirkasheva nizoli uy-joy fermer xo'jaligi tasarrufidagi 236-konturda joylashganligi va uy-joyga tuman hokimining qarori chiqarilganligini 2022-yil noyabr oyida bilgan. Shundan so'ng u uy-joyini noqonuniy va tuman hokimining 2019-yil 11-iyulidagi 5186-Q sonli qarorini haqiqiy emas, deb topish haqida sudga ariza bergan.

Samarqand tumanlararo ma'muriy sudning 2023-yil 2-mayda bo'lib o'tgan sud majlisida tuman hokimining 2019-yil 11-iyulidagi 5186-Q sonli qarorini qonunchilikka zid ravishda hamda arizachi huquq va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzgan holda qabul qilingan deb hisoblangan. Yer Kodeksiga ko'ra, fuqarolarga yakka tartibda uy-joy qurish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga qonun hujjatlarida



belgilangan tartibda har bir oilaga 0,06 gektargacha yer uchastkasi beriladi. Hokimning yuqoridagi qarori bilan esa mazkur qonun talablariga zid ravishda fuqaro I.Navro'zovga 1,14 gektar yer uchastkasini 0,15 gektar qismiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi belgilangan.

Vazirlar Mahkamasining yuqorida keltirilgan qarori bilan tasdiqlangan nizom talablariga ko'ra, murojaat etuvchi talab etilgan hujjatlar va arizani o'z imzosi bilan tasdiqlashi lozim. Nizoli masalada esa I.Navro'zov oilasini moddiy ta'minlash uchun boshqa shaharga ishlashga ketgan vaqtida uning turmush o'rtog'i M.Navro'zova Davlat xizmatlari markaziga ariza berganligi ko'rsatilgan.

Yuqoridagi holatlar tufayli sudning hal qiluv qarori qabul qilinib, "Bolqi" fermer xo'jaligi boshlig'i H.Tirkashevaning arizasi qanoatlantirilgan va Ishtixon tumani hokimining 2019-yil 11-iyulidagi 5186-Q sonli qarori haqiqiy emas, deb topilgan.

Qonunchiligimizda uy-joyga egalik qilish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar bo'la turib, sudning qarori bilan bir oilaning yashab turgan uy-joyi noqonuniyga aylandi. Bunga kim aybdor, qonunlar ijrosiga mas'ul bo'lgan idoralarni yoki ijrochilarni? Bu holat fuqarolarda qonunlar, vakolatli rahbarlar va ijrochilarga nisbatan ishonchsizlik uyg'otmaydimi? Mas'ullarning aybi, xatosi yoki e'tiborsizligi tufayli ikki oila (balki yana boshqalar ham bordir) o'rtasida adovatning uyg'inishiga sabab bo'ldi. Bunga murojaatni o'rganish chog'ida ham guvoh bo'ldik, ammo kasb etikasi yuzasidan barchasini yoritishni lozim topmadik. Bir oilaning tinchligi, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarning uy-joylari buzilmasligiga umid qilamiz, xulosa.

O'ktam XUDOYBERDIYEV, Baxtiyor MUSTANOV (surat), "Zarafshon" muxbirlari.

OLTIN ASRNI BIRLASHGAN INSONLAR YARATADI

Bu shior barcha jabhada asosiy maqsadga aylanmog'i lozim

Joriy yilning 14-iyul kuni Shavkat Mirziyoyevning Prezidentlik kirishish marosimi bo'lib o'tdi. Unda nutq so'zlagan davlatimiz rahbari 36 milliarddan ortiq O'zbekiston xalqining tinchligi, farovonligini ta'minlash, kelajakka bo'lgan ishonchini mustahkamlashga shaxsan javobgar ekanligini ta'kidladi. Tinchlik va farovonlik, rivojlanish esa xalqimizning jips bo'lib, bir maqsad yo'lida birlashib harakat qilishi, yashashi natijasida erishiladigan ne'mat ekanligini e'tirof etdi.

Shu o'rinda dono xalqimizning "Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar", degan maqoli yodga keladi. Albatta, bu el azal-azaldan birlik, bag'rikenglik kabi xislatlarni e'zovlagan, bir necha ming yillik tarixga ega davlatchiligimiz o'tmishida qanchadan-qancha baloyu ofatlar, yovlarning bosqinlarini ayni shu xislat - birlashish orqali bartaraf etishga muvaffaq bo'lgan. Afsuski, maqolning "... birlashmagan to'zar" qismini ham o'z qismatida ko'rgan xalqimiz tarix zarvarlarida achchiq xotiralarni qayd etib qo'yishga majbur bo'lganligidan hammamizning xabarimiz bor. Bundan xulosa shuki, tinchlik va farovonlikka erishishni, rivojlanishni istar ekanmiz, albatta, birlashishimiz, maqsadimiz yo'lida bir jonu bir tan bo'lishimiz talab etiladi. Shuningdek, Shavkat Mirziyoyev nutqida demokratik islohotlar davom ettirilishi, turli

siyosiy partiyalarga mansublik, turli g'oya va qarashlar tarafdori bo'lish mumkinligi, bu turfa xillikni Vatan va xalq manfaati yo'lida birlashtirishi xususida ham so'z yuritdi. "Albatta, biz turli siyosiy partiyalarga mansub bo'lishimiz, turli g'oya va qarashlar tarafdori bo'lishimiz mumkin. Demokratiya degani ham aslida shu. Ammo mohiyat e'tibori bilan qaraganda, barchamizning, butun O'zbekiston xalqining maqsadi bir. Bizning barchamizni Vatan, el-yurt manfaati birlashtiradi".

Biz birmiz va birgalikda kuchimiz, degan g'oya atrofida ezgu maqsadlar yo'lida birlashish va chetdan tomoshabin bo'lib turishni to'xtatish va kerak bo'lsa, davlatimiz ravnaqi va xalqimiz farovonligi yo'lida ish beradigan eng yaxshi tashabbuslarni ilgari surishimiz lozim.

"Barchamiz birgalikda kelajakka ishonch bilan intilib, butun

diquat-e'tiborimizni oldimizda turgan vazifalarni hal etishga qaratishimiz, xalqimiz kutayotgan, davrning o'zi talab etayotgan yangi g'oya va tashabbuslarni ilgari surishimiz lozim", deganlarida Prezidentimiz ana shu ezgu maqsadlarni bayon etdilar.

Eng oliy ne'mat - bu tinchlik va uni asrab, avaylamog'imiz kerak. Shu ma'noda, nutqning boshidan to so'ngigacha qadar tinch mamlakat, rivojlangan davlat va farovon jamiyat, sog'lom va yuksak ma'naviyatli insonlarga xizmat qilish uchun bel bog'lash asosiy masala bo'ldi, desam, ayni haqiqatni aytgan bo'laman.

O'zbekistonda yashayotgan har bir fuqaro mana shu diyor farzandi sifatida shu davlat va jamiyatning yanada rivojlanishi va gullab-yashnashi uchun harakat qilishi va o'z hududining obodligi va farovonligiga hissa qo'shishi lozim. Binobarin, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining "Inson o'zgarasa, jamiyat o'zgaradi" degan shiori mazmun-mohiyati markazida ana shu fikrlar yotibdi.

Ozoda NORIMOVA, O'ZMTDP viloyat kengashi bosh mutaxassisi.

Jurnalistik talabgorlar uchun ijodiy imtihon bo'lib o'tdi

Samarqand davlat chet tillar institutida xalqaro jurnalistika yo'nalishiga o'qishga kirish istagida bo'lgan abituriyentlar uchun ijodiy imtihon bo'lib o'tdi. Imtihon ikki bosqichda: insho va suhbat asosida o'tkazildi.

- Bu yil xalqaro jurnalistika yo'nalishiga 87 nafar abituriyent hujjat topshirgan, - deydi institutning ilmiy bo'lim boshlig'i, ijodiy imtihonlar mas'uli Bekpo'lat Turobov. - Xalqaro jurnalistika yo'nalishiga 30 nafar talaba o'qishga qabul qilinadi. Shulardan 5 nafari davlat granti, qolgan 25 nafari to'lov-kontrakt asosida tahsil oladi.

Dastlab abituriyentlarga beshta mavzudan birida ixtiyoriy insho yozish topshirildi va 3 soat vaqt berildi. So'ngra maxsus tuzilgan komissiya har bir abituriyent bilan belgilangan savollar yuzasidan suhbat o'tkazildi.

- Men bugun ijodiy imtihonda "Hayotingizni o'zgartirgan kitob" mavzusida insho yozdim, - dedi Munira Ibrohimova. - Dadam 8-sinfigimda Yulius Fuchikning "Dor ostidan reportaj" nomli kitobini olib bergandi. Kitobda 1943-yillardagi voqealar, ya'ni urush, qamoq iztiroblari tasvirlangan bo'lib, hayotimning tubdan o'zgarishiga sabab bo'lgan. Shuningdek, O'tkir Hoshimovning "Daftar hoshiyasi-dagi bitiklar" kitobi ham yuragimdan chuqur joy olgan. Adibning ushbu kitobi haqida ham o'z fikrlarimni yozdim. Og'zaki suhbatda menga "Reportaj nima?", "Ijod qilasizmi?", "Jurnalistika kasbini nega tanladingiz?" kabi savollar berildi. O'ylaymanki, ijodiy imtihonni yaxshi topshirdim. O'zim xohlab shu kasbni tanlayotganim uchun ham imtihonda qiynalmadim.

- Bizga tanlash uchun beshta mavzu berildi. Shulardan men "Inson qadri" mavzusida insho yozdim, - deydi Otabek Umirov. - Inson qaysi jamiyatda yashamasin, u ilmi bilan qadrlil. Ilim insonning bosh-

qalardan ulug'ligini isbotlab beradi. Tarixni kuzatsangiz ham faqat ilmi odamlar zamonlar osha yashab kelmoqda. To'g'ri, inson tashqi tomondan har xil ko'rinishga ega. Ammo uni ko'klarga ko'taradigan bu ilmdir. Inshoda shular haqida fikr yuritdim. Ijodkorligi bor yoshlar uchun imtihon juda qiziqarli bo'ldi, hech qanday qiyin joyi yo'q. O'zim hikoyalari yozib yuraman. Jurnalistika sohasiga bolaligimdan qiziqib kelaman.



Ijodiy imtihonlarning umumiy bali 93 bo'lishi kerak, shundan 31 foizi og'zaki savol-javobga qo'yiladi, natijalar ikki kundan so'ng e'lon qilinadi. Shundan so'ng abituriyentlar test sinovlarida qatnashib, uchta majburiy fanlardan imtihon topshiradi. So'ngra ikkala imtihon ballari qo'shilib, yuqori ball to'plaganlar talabalar safiga qabul qilinadi.

Xurshida ERNAZAROVA.

Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi tomonidan jurnalist va blogerlar uchun press-tur tashkil etildi. Unda ommaviy axborot vositalari vakillari umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini yozgi ta'tilda to'garaklarga jalb etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar hamda Samarqand tumanida yangidan bunyod etilayotgan ixtisoslashgan maktabning qurilish jarayoni bilan tanishtirildi. Birinchi manzil viloyat "Barkamol avlod" bolalar maktabi bo'ldi.

Samarqand tumanida ixtisoslashgan maktab qurilyapti

Viloyatdagi "Barkamol avlod" bolalar maktablarida 7 ta yo'nalishda to'garaklar tashkil etilgan bo'lib, ularga 45 ming 230 nafar o'quvchi-yoshlar qamrab olingan. Birgina viloyat "Barkamol avlod" maktabining o'zida badiiy, texnik, sport, san'at, qo'l mehnati, ekologiya va o'lakshunoslik kabi 7 ta yo'nalishdagi 41 ta to'garak faoliyat olib bormoqda. Ushbu to'garaklarda 1144 nafar o'quvchi-yoshlar qiziqishlariga qarab mashg'ulotlarda ishtirok etyapti.

- Bizda tashkil etilgan to'garaklar mashg'ulotlarini samarali o'tkazish uchun zarur sharoitlar yaratilgan, - deydi maktab direktori Feruza Nazarova. - Barcha qulayliklarga ega, keng va yorug' xonalarda bir paytning o'zida 600 nafar o'quvchi mashg'ulotlarda qatnashishi mumkin. To'garaklar rahbarligiga bilimdon, o'z ishini yaxshi biladigan, tashabbuskor mutaxassislar jalb etilgan. Ayniqsa, mashg'ulotlarni qiziqarli, ilg'or va interaktiv usullar asosida o'tkazilishiga alohida e'tibor qaratamiz.

Tajriba-sinov tariqasida 2022-yil noyabr oyidan maktabda shaxmat va mental arifmetika to'garaklari tashkil etilgan edi. Hozirda taekvondo, karate, gimnastika to'garaklari ham qo'shildi. 70 ta a'zo bilan boshlangan to'garaklar bugun 280 nafar bola qatnayapti.

- Shaxmat to'garagiga muntazam qatnashaman, - deydi Samarqand shahridagi 20-maktabning 2-sinf o'quvchisi Doniyor Nabiyeov. - Bo'sh vaqtimda tajribali ustozlardan shaxmat sirlarini



o'rganyapman. Musobaqalarda qatnashib, mahoratimni oshiryapman.

Maktabda pullik to'garaklar ham tashkil etilgan bo'lib, sport yo'nalishlari va mental arifmetika to'garaklariga ayniqsa, talab yuqori. Pulli to'garaklarga haftaning ikki kuni ajratilgan. Bundan tashqari, maktabda muzey tashkil etilgan bo'lib, unda 60 ta eksponat hamda maktab o'quvchilarining qo'l mehnatlari namunalari o'rin olgan. Maktab o'quvchilari xalqaro ko'rik-tanlovlarda ishtirok etib, faxrli o'rinlarga munosib ko'riyapti.

Press-tur ishtirokchilari joriy yil fevral oyida Gulobod mahallasida bir gektar hududda Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimida yangi tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan maktab qurilishi bilan ham tanishdi.

- Ushbu maktab qurilishi uchun 48,6

milliard so'm mablag' ajratilgan, - deydi "Texnostroy" qurilish korxonasi ish boshqaruvchisi Olim To'xtamurodov. - Maktabda zamonaviy o'quv binosi, laboratoriya xonali, yotoqxona, oshxona va sport zallari bo'ladi. Hozirgacha qurilish ishlarining yetmish foizi yakunlangan.

480 o'rinli yangi maktab binosi joriy yil oktabr oyida foydalanishga topshiriladi. Maktab tabiiy va aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan bo'lib, o'quvchilarga biologiya, kimyo, fizika, matematika va informatika fanlari o'rgatiladi.

Boshqarma mas'ullarining ta'kidlashicha, 2023-yil budjet mablag'lari hisobidan Samarqand shahridagi Qorasuv massivida 1680 o'rinli va Urgut tumanidagi Mergancha mahallasida 990 o'rinli yangi maktab binolari quriladi.

S.MARDIYEV.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tekzor, samarali va hamyonbop / MUHOJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

Barcha yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, chet el investorlari diqqatiga!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-102-son qaroriga muvofiq, davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarining bo'sh turgan ko'chmas mulk obyektlari hamda ulushlari "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali sotilishi belgilangan. Shunga ko'ra, quyidagi davlat mulki obyektlari bo'yicha

SAVDOLAR E'LON QILINADI

No	Obyekt nomi	Balansda saqlovchi tashkilot nomi	Joylashgan manzili	Umumiy yer maydoni (ga.)	Bino va inshootlarning umumiy egallagan maydoni (kv.m.)	Savdolarga chiqarilgan boshlang'ich narxi (so'm)	Savdo sanasi	Ariza berishning oxirgi muddati
1	Bo'sh turgan omborxon va garaj binosi	Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi Samarqand viloyat hududiy boshqarmasi	Ishtixon tumani, Baxrin mahallasi, Baxrin qishloqi 46-uy.	1.050	497.9	508 499 600,0	28.08.2023 y.	28.08.2023 y.
2	Bo'sh turgan sobiq ma'muriy bino	Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi Samarqand viloyat hududiy boshqarmasi	Ishtixon tumani, O'zbekiston mahallasi, Ishtixon ko'chasi, 3-uy.	0.0174	174.82	448 225 200,0	22.08.2023 y.	22.08.2023 y.

Auksionda qatnashish tartibi to'g'risida:

Ushbu obyektlarni "E-AUKSION" elektron savdo platformasi orqali sotib olish Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi "Elektron onlayn auksionlarni tashkil etish" aksiyadorlik jamiyatining "e-auksion.uz" sayt maydonchasida o'tkazilishi rejalashtirilgan. Savdolar qatnashish istagida bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar xatlov va baholash ishlari yakunlangandan keyin "e-auksion.uz" saytida qoidalar bilan tanishgan holda ro'yxatdan o'tib, savdo jarayonlarida qatnashishlari mumkin.

Ro'yxatdan o'tgan jismoniy va yuridik shaxslar davlat xizmatlari markazi yoki "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali elektron raqamli imzo sertifikatlarini olishi mumkin.

Auksionda qatnashish uchun ariza berish:

Ro'yxatdan o'tgan va elektron raqamli imzoga ega bo'lgan jismoniy va yuridik

shaxslar "e-auksion.uz" saytida yaratilgan "Shaxsiy kabinet"lari orqali kirib, o'tkaziladigan auksionlar ro'yxatidan o'ziga kerakli obyektning tanlashi va u haqida tegishli ma'lumotga ega bo'lishlari mumkin. Auksion savdosiga qo'yilgan har bir mol-mulkka tizim o'ziga xos takrorlanmaydigan LOT raqami beradi.

Auksion savdosida qatnashmoqchi bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar bino haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lib, shu yerda ko'rsatilgan bank rekvizitlariga ko'rsatilgan zakalat mablag'ini to'lagan (to'lov hujjatida auksiondagi LOT raqami ko'rsatilishi kerak) holda auksion savdosida qatnashish uchun elektron tarzda ariza berishlari lozim.

Elektron tarzda ariza berish jarayonida ishtirokchi tomonidan elektron raqamli imzo bilan imzolagan holda ariza yuboriladi. Ariza elektron tarzda yuborilgach, ishtirokchining "Shaxsiy kabinet"ga ariza qabul qilinganligi yoki qaytarilganligi to'g'risida javob xabari keladi. Auksion

savdosida qatnashish uchun ariza berish saytida ko'rsatilgan muddatda to'xtatiladi.

Auksion jarayoni:

Ishtirokchilar tomonidan savdoda qatnashish uchun ariza berilgandan so'ng savdo boshlanadigan kunda (vaqtda) ishtirokchilar "e-auksion.uz" saytida maxsus login va parollarini tergan holda "Shaxsiy kabinet"ga kiriladi va "Kabinet"ga o'tilgandan so'ng "Mening auksionlarim" bo'limidan qatnashmoqchi bo'lgan auksion tanlanadi.

Shunda dastur tomonidan "Ishtirok etishni tasdiqlash" so'raladi, ishtirok etish tasdiqlangandan so'ng savdo jarayonida ishtirok etish mumkin bo'ladi (auksion savdo o'tkazish kuni soat 10:00 da boshlanadi).

Auksionda qatnashuvchilarga dastur tomonidan alohida tartib raqami beriladi.

Auksionning boshlanishi ishtirokchilardan LOTni boshlang'ich narxdan bitta qadamga oshirilgan narxda sotib olish bo'yicha taklifni tasdiqlashni so'rashdan

boshlanadi. Agar taklif berilgandan keyin 10 daqiqa davomida auksion ishtirokchilaridan biri belgilangan qadamga oshirilgan LOT narxini tasdiqlasa, keyingi taklifni tasdiqlash uchun vaqt yana 10 daqiqaga uzaytiriladi.

Agar tasdiqlangan oxirgi taklifdan so'ng 10 daqiqa davomida keyingi oshirilgan LOT narxi bo'yicha taklif auksion ishtirokchilarining birontasi tomonidan tasdiqlanmasa, auksion natijalari haqidagi bayonnomani avtomatik tarzda shakllantirgan holda yakunlanadi. LOT narxi bo'yicha taklifni oxirgi tasdiqlagan ishtirokchi auksion g'olibi deb topiladi. Shundan so'ng ishtirokchiga g'oliblik bayonnomasi topshiriladi yoki ishtirokchi bilan kelishgan holda pochta jo'natmasi orqali yuboriladi.

Savdolar natijalari bo'yicha g'oliblik bayonnomasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasiga taqdim etilgan sanadan boshlab 10 kundan kechikmay oldi-sotdi shartnomasi tuziladi.

Auksionda ishtirok etgandan so'ng g'olib bo'lmagan ishtirokchilarga zakalat pullarini ishtirokchilarning elektron tarzda bergan arizalariga asosan ko'rsatilgan hisob raqamga qaytarib beriladi yoki keyingi savdolar qatnashish uchun o'tkazilishi mumkin.

Qo'shimcha ma'lumotlarni olish uchun manzil: Samarqand shahri Kamol Otaturk ko'chasi, 21-uy. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi davlat aktivlarini sotishga tayyorlash va sotish ishlarini muvofiqlashtirish bo'limi.

Ma'lumot uchun telefonlar:
66-233-96-64, 99-447-17-70
Faks: 66-233-73-54

"Facebook"dagi rasmiy sahifa:
Sam Dav Aktiv
Web-sahifa: privatization.davaktiv.uz
Internet tarmog'idagi veb-sayt:
samarqand@davaktiv.uz

SINFDOSHLAR 50 YILDAN SO'NG UCHRASHDI



Bundan 50 yil avval Urgut tumani Qayroqli qishlog'ida joylashgan 26-o'rta maktabning 10-sinfini tamomlagan sobiq o'quvchilarning uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Sinf doshlar maktabning yangi binosida yig'ilib, bolalik yillari, o'quvchilik xotiralarini eslashdi. Ularning 17 nafari oliy ma'lumotli, 14 nafari turli kasblarda mehnat qilgan. Bugun qarilik gashitni surayotgan sinfdoshlarning farzandlari el-yurt ravnaqi yo'lida faoliyat olib bormoqda.

Uchrashuvda dunyodan o'tgan ustozlar yod etilib, Qur'on tilovat qilindi. So'ngra sobiq o'quvchilar yurtimiz tinchligi, hayotimiz farovonligini e'tirof etishdi. Tadbirda 50 yillik qadrdonlar hayot yo'llaridagi xotiralar bilan bo'lishdi hamda yurtimizning yanada rivojlanishini so'rab duo qildilar.

Tohir ERGASHEV,
mehnat faxriysi.

DA'VOLAR BO'LSA

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Nasimov Baxodur Saidovichga (2021-yil 1-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi viloyat kengashi Samarqand shahar ichki ishlar boshqarmasi faxriysi, polkovnik

Pahlavon SHAMSIYEVning vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari hamda yaqinlariga ta'ziya izhor etadi.

Bugungi murakkab, ya'ni demokratiya bahonasida davlatu millatlar o'z ustunligini ko'rsatayotgan, eshituvchidan gapiruvchi ko'paygan, odamzod erkinlik bahonasida xulqini jilovlay olmayotgan bir paytda, asli nurotalik Suyundiq Mustafafo (hozir u kishi Toshkentda istiqomat qiladi) 1967-yildan buyon komillik sari intilib yashaydi.

Ibrat olmagan ibrat berolmaydi

Toshkent pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi bo'lgan o'spirin o'shanda boshlagan ezgu bitiklarini bugun - 70 yoshdan oshgandan keyin ham xuddi o'sha shijoat va tafakkur bilan davom ettirmoqda. Ayniqsa, o'rta maktabda o'qituvchilik, tuman gazetasida, Navoiy viloyat teleradiokompaniyasida va Toshkentdagi bir qator nashriyotlarda ijod qilish barobarida Suyundiq aka dunyoni anglash, ilmiy puxta egalash, so'z va amal birligi borasida o'ziga xos shaxs sifatida shakllandi. Xususan, tarixiy mavzulardagi kuzatuvlari, tadqiqotlari va xulosalari doimo nafaqat o'quvchilar, balki safdoshlari tomonidan ham e'tirof etildi.

Ma'rifatli inson "Turonzamin aziz avliyolari va ulamolari tazkiri" besh jildlik majmuasini yara-

tishga muvaffaq bo'ldi.

Suyundiq akaning "Qatag'on jabrdiyalari yoxud ulamolalar ayanchli qismatidan lavhalar" risolasi ham inson tafakkurining, fidoyiligining qadriyatini haqida boradi. Ko'p yillar mobaynida olib borilgan o'rganishlar, izlanishlar tufayli muallif Nurota hududida istiqomat qilgan yuzga yaqin nurli siymolar hayoti, ularning ibratli faoliyati va qatag'on davridagi ayanchli qismati xususida lavhalar to'plagan.

Risolada jabrdiyda bo'lgan mulla va eshonlar tarjimai holidan tashqari ularning qo'lyozmalari, xalq o'rtasida qolgan ibratlari, ezguliklari haqida fikr yuritadi. Binobarin muallif o'zi ham bu ulug'



kishilarning ilmidan, fidoyiligidan ibrat olib, halovat topadi. Risolada juda ko'p tarixiy qishloqlarning izohlari, diniy iboralarning sharhlari ilmiy asoslab berilgan. Bundan tashqari qatag'onlar arxivini o'rganish jarayonida mingdan ziyod hujjatlar savod bilan o'rganib chiqilgan.

Kitob bizga Nurota mavzesida faoliyat ko'rsatgan ko'plab ulamolalar hayoti va faoliyati haqida aniq ma'lumotlar berish bilan birga, ularning ibratlaridan saboq olish imkoniyatini ham beradi. Zero, bu saboq bizga ham xuddi muallif singari halovat bag'ishlaydi.

Yangi kitob

O'qing, qiziq

F.IS'HOQOV.

Butun dunyoda eng mashhur va eng ko'p ishlatiladigan so'z - bu okey (okay, OK) so'zidir.

Akulalar juda uzoq umr ko'radi. Ba'zilarining yoshi hatto qadimiy daraxtlardan ham qariroqdir.

Sayyorimiz aholisining yarmi hech qachon qorni ko'rmagan.

Olmaxonlar mushuklar kabi xurillaydi. Ular odamlarga yaqinlashishdan qo'rqishi sababli bu haqda juda kam odam biladi.

Dunyoda eng ko'p sotiladigan narsa - kubik-rubik. Ikkinchi o'rinda Apple texnologiyasi turadi.

Kolibri - nafaqat kichik hajmi, tashqi ko'rinishi yoki tezligi tufayli ajoyib, u orqaga qarab ucha oladigan yagona qushdir! Shu bilan birga, bu galati qush yerda yura olmaydi.

Telefon ixtirochisi hayoti davomida hech qachon onasiga yoki sevimli xotiniga qo'ng'iroq qilmagan. Sababi, kar bo'lgan. Demak, u ushbu qurilmani shaxsiy maqsadlari uchun emas, balki insoniyat uchun ixtiro qilgan ekan.

Qurbaqa yomg'iri uydirma emas. 1997-yilda Meksikada bu kichik jonzodlar bo'roni bo'lib o'tgan.

Zamonaviy eskimos (AQSh Alyaskasi, shimoliy Kanada va Grenlandiya orolida yashaydigan xalq) - lar ovqatni sovutish uchun emas, muzlashdan saqlash uchun muzlatkich sotib oladi. Muzlatkich isitish uchun ishlatiladigan bo'lsa, u yerlar qanchalik sovuqligini o'zingiz tasavvur qiling.

Okeanlarda insoniyat butun tarixi davomida qazib olinganidan ko'ra yuz marta ko'proq oltin yashirgan. Demak, okean tubida dunyo iqtisodiyotini butunlay o'zgartirib yuborishi mumkin bo'lgan xazina bor.

Bahora
MUHAMMADIYEVA
tayyorladi.



Osmonday to'lishib boradi jahon

Umr o'tib borar, har lahza oni To'liqinli dengizning shiddati oro. Kimga nasib aylar baxt armug'oni, Kimningdir ko'ngli shod yo motamsaro.

Oxirgi manzilning so'qmoqlarida Ko'rinar qadamning chuqur izlari. Og'riqli damlarning puchmoqlaridan Suv ichar armonning tup ildizlari.

Ma'rifat kuchidan mag'lub jaholat, To'g'riilik kasb etsa, kir bo'lmas qo'li. Mudom haqiqatga boshdir adolat, Yorug'likka boshlar Temurbek yo'li.

Umrning ziynati - halollik, poklik, Undan shifo topar dilning yarasi. Vujudni poklagay imonu soflik, Ko'rkam bog' qoldirar inson sarasi.

Ertangi kun bilan yashamoq o'yi Ko'ngil kulbasida bahs etar giryon. Naqadar shirindir hayotning bo'yi, Qatrasi yurakda saqlab turar jon.

Sipqorib to'ymasan, ichganing sayin Ichging kelaverar hayot mayini. Bir kuni yoshlik tark etmog'i tayin, Yillar chalaverar dunyo nayini.

Kunlarni kaftiga kepkaday tuyib, Osmonday to'lishib boradi jahon. Tiriklik tashvishin boshiga qo'yib, Manguga yo'l olar hazrati Inson!

BAXTGA

Barqaror bo'lsaydi, baxtim, bahoring, Bog'laring bezansa, barqut bo'stonda. Bu bog'ni bilgan bor, bilmaganlar bor, Bilganlar bo'y berar bahoristonda.

Bunchalar beshafqat bu baqo bahsi, Bedavo bo'lmasa, bechora bemor. Beparvo boqasan, bildirmay, beun Ba'zan behalovat, betoqat bedor.

Beixtiyor bo'lib, behol bog'lansam, Beqaror bo'zlaysan, beor, beboshsan. Bevafoqa behud beqard bo'lma, Burchini bilganga beg'araz boshsan.

Borlig'ing benazir, bebaho bo'lg'ay, Bag'rimga berkinsang, besas, beazor. Bisotingda borin birma-bir bersang, Baxtiyor bo'lardim, beso'z, betakror.

Zuhra BEGIM.

- Olapar, olamda nima gaplar?
- Bilasanmi, Sirtlon? Odamlarning fe'l-atvoriga tushunmayman-da. Bir gap bo'lsa, bari shu mavzuga xirapashshaday yopishib oladi. Nima emish, shaharni itlar bosib ketganmish. Shov-shuv avjida. Bir-ikkita esi yo'q itvachchalarning dastidan butun shahardagi kuchuklarning nomiga dog' tushyapti. Yaqinda sport to'garigidan qaytayotgan bolaga uch-to'rtta it tashlanibdi. Aslida ular bolaning sumkasidagi tushligidan ortgan non va kolbasasini yemoqchi bo'lgan. Yigit-chani itlardan himoya qilgan haydovchi kun qahramoniga aylanib, juda ko'p tashkilot rahbarlari uni mukofotlabdi. Daydi itlar bilan esa hech kimning ishi yo'q.

- Afsuski, bunday voqealarni ko'p eshitganman.
- Bunga kim aybdor, deb o'ylaysan? Albatta, o'zlari. Sababi, uy hayvonlarini boqish tartibini bilmaydi. Uddalay olmaganidan keyin ularni yo'qotish payiga tushadi.

- Ha, gapirma. Oddiy bir dehqonning katta tomorqasida o'n yilga yaqin qo'riqchi vazifasini bajardim. Hech kimga ozor bermadim. Shunday bo'lsa-da, qarashimdan o'g'rilarning tizzasi qaltirardi. Xo'jayinning puli ko'paygach, tomorqasini devor bilan o'radi. Keyin haydovchisiga meni qopga solib, gadoy topmas joylarga olib borib, adashtirib kelishni tayinladi. Ularning gapini tinglab turgan kichik o'g'li Tolmas mensiz yashay olmasligini aytgandi, xo'jayin uni yupatish uchun yangi tug'ilgan, chiroyli kuchukcha sovg'a qilishga va'da berdi. U rozi bo'lmadi, ammo bu uyda otasining gapi gap edi. Tolmas men bilan xayrlashayotgan paytida ko'z yoshlarini to'xtatolmadi. Men ham yig'ladim, ammo buni kichik xo'jayindan boshqa hech kim sezmadim. Mana, ikki oydirki "daydi it", degan nom bilan shaharda chiqindi titib yashayapman.

- Men bir paytlar qassobning iti bo'lganman. Aytishlaricha, otamning otasi bo'ri bo'lgan ekan. Ammo o'zim qo'yday yuvoshman. Hech kimni qopmaganman. Hovliga begona odam kelsa, yotgan joyimda bir-ikkita hurib qo'yardim, xolos. Xonadon egalarining barchasi meni birdek xush ko'rdi.

- Qassobning iti bo'lish boshqacha bo'lsa kerak-a?
- Avvaliga go'shtdan muammo yo'q edi. Ammo xo'jayin olamdan o'tgach, uydan baraka qochdi. Xonadon bekasi qaysidir idorada farrosh bo'lib ishlay boshladi. Tog'ni ursa, talqon qiladigan katta o'g'il esa yotib yer edi. U ichkilikka berilib, uydagi muzlatkichni sotib, qarzini uzdi. Sigir-buzoqlarni ham pulladi, qo'rada-gi qo'ylarning o'rini aroq va vinodan bo'shagan shisha idishlar egalladi. Bu hovlidagi uy hayvonlaridan sotilmagani mushuk ikkimiz edik.

- Mushuk ham bormidi?
- Ha, uning ismi Baroqovoy edi. U bilan bolalikdan "it-mushuk" o'yinini o'ynab, katta bo'lganimiz. O'z jigarimdek yaxshi ko'rardim. Borgan sari ikkimizning ham ahvolumiz og'irlashib borardi. Kaitafahm mushuk uydagi sichqonlarni yeb tugatgach, o'g'rilikka qo'l ura boshladi. Sekin-asta uydagi dasturxonni sudrab olib chiqishni o'rgandi. To'g'risi, qornim juda och qolganida uning o'g'irlab chiqqan nonidan bir burda yeganim rost. Shu kabi qilg'liqlaridan keyin uy egalari uni yo'qotish payiga tushdi. Xo'jayinning bo'y yetgan qizi Nargiza esa uni jonidan ortiq ko'rardi. Yuvib-tarab, opichlab yurardi. Ba'zida Baroqovoyning peshonasidan

Daydi ITLAR suhbati



o'pganini akasi ko'rib qolsa, bechora mushukning holiga maymunlar yig'lardi. Uni Nargizaning quchog'idan sug'urib olgan aka bor kuchi bilan uqotirardiki, devor-pevorga borib urilmasin-da, deb yuragimni hovuchlab o'tirardim.

- Ha, mushukni o'zi ayollar xush ko'radi-da! Xo'sh, keyin nima bo'ldi, davom et!

- Baroqovoyi kichik xo'jayin to'rt-besh marta adashtirib kelishga urindi. Ammo u qaytib kelaverdi. Qopga solib, yarim kechasi yigirma kilometr uzoqlikdagi qishloqqa tashlab kelganini, endi u ikki dunyoda ham uyni topib kelolmasligini aytib, maqtanib turganida miyovlab, hovliga kirib kelgan mushukni ko'rib, faqat men va Nargiza xursand bo'lgan edik. Bir kuni Baroqovoy juda og'ir jinoyatga qo'l urdi.

- E, buncha vahima qilasan, qanaqa jinoyat ekan?

- Uy bekasi sovchilar kelishiga osh qilish uchun qarzga olib kelgan 300 gramm go'shtni shkafdan o'g'irlab chiqib, yeyotganda kichik xo'jayin qo'lga tushirdi.
- Voy, dahshat-ku!
- Ha, haliyam kichik xo'jayin mehribon edi. Uni urmadi, so'kmadi. Go'shtni paqqos tushirayotgan mushukka termilib turgan ko'zlari bir zumda namlandi. Bir muddat jim turdi-da, yutindi. Boshini changallab, akasi muzlatkichni sotmagani-da, go'shtni mushuk o'g'irlay olmasligini aytib, ho'ngradi. Opasi chiroyli va aqlliligi uchun ko'p sovchilar kelaverganidan bezor bo'lganini, qancha yaxshi ko'rmasin, uni tezroq erga tegishini istayotganini bildirib, bo'zladi. Shu kabi tashvishlardan mushtipar onasi ham ozib-to'zib ketayotganini o'ylab, qon yig'ladi.

- ...
- ...Baroqovoyi tutdi, qop-qora polietilen qopga solib, velosipediga ortgancha qayer-gadir ketdi. Har gal kichik xo'jayin mushukni adashtirib kelish uchun yo'lga chiqqanida, uning baribir qaytib kelishini bilsam ham, ortidan halloslab, tilim osilib yugurardim. Bu gal Baroqovoyning ketmasligini chin dildan istadim. Ammo baribir qaytadi, degan umiddami yoki xatosiga yarasha jazosini olyapti, degan xayoldami, negadir yugurmadim. Oradan bir necha kun o'tdi, Baroqovoy do'stim qaytmadi.

- Yaxshi ish bo'lmabdi.
- Kunlarning birida yana-da dahshatli voqeaning guvohi bo'ldim.
- Qanaqa voqea ekan?

Hikoya



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 366 nuxxada chop etildi. Buyurtma 409. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

T.SIDDIQOV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda